

## **XO'RAKI KO'K NO'XATNING NAV VA NAMUNALARIDAN YOTIB QOLISHGA VA KASALLIK ZARARKUNANDALARGA CHIDAMLI ENG YAXSHI BOSHLANG'ICH MATERIALNI TANLASH (SAMARQAND VILOYARI SHAROITIDA)**

**Sarvinoz Nizomova**

**Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar insituti magistranti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8382066>

**Annotatsiya.** Sabzavot yoki yashil no'xat respublikamiz uchun noan'anaviy ekin turi bo'lib, iste'molchilarning yashil no'xatga bo'lgan talabi yildan-yilga ortib borishiga qaramasdan, shu kunga qadar ushbu ekinning konserva mahsulotlari respublikamizga chet mamlakatlardan import qilinmoqda. Vaxolanki, respublikamiz iqlim sharoiti yashil no'xatdan bir yilda ikki marta yuqori hosil olish imkoniyatini beradi. Ushbu maqola Samarqand viloyati sharoitida xo'raki ko'k no'xatning nav namunalaridan yotib qolishga chidamli eng yaxshi boshlang'ich materiallarni tanlab olish uchun olib borilgan tadqiqot natijalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ko'k no'xat, bo'shlang'ich material, nav, yotib qolishga chidamlilik, kasallik, zararkunanda.

**Abstract.** Vegetables or green peas are a non-traditional type of crop for our republic, despite the fact that consumer demand for green peas is increasing year by year, canned products of this crop are imported to our republic from foreign countries. However, the climatic conditions of our republic allow for a higher yield of green peas twice a year. This article describes the results of the research carried out to select the best starting materials from the variety samples of green peas in the conditions of Samarkand region.

**Key words:** blue peas, starting material, variety, resistance to lying down, disease, pest.

**Kirish.** Yashil no'xat organizmga yengil singuvchi, oqsilga boy bo'lib, ular asosan yanchib olinadigan va dukkaklari bilan iste'mol qilinadigan qandli shakllarga bo'linadi. Dukkaklari asosan soyuq ovqatga, yashil no'xatlari esa konserva sanoatida, go'shtli, baliq va sabzavotli taomlarni tayyorlashda ishlatiladi. Boshqa no'xatlardan yangiligicha ham iste'mol qilinishi, muzlatilgan holda ham foydalanish mumkinligi bilan farqlanadi.

Sabzavot goroxi yoki yashil no'xat (*Pisum sativum* L.) tarkibida A,S,V grupp va PP vitaminlarga juda boy bo'lib, bu qattiq bug'doyga nisbatan B vitamini 9 ikki, B2 vitamini bir yarim va PP vitamin besh marta ko'pdir. 100 gramm no'xat tarkibida 0,30-0,54 mg karatin, vitaminlardan k-0,28, B1- 0,28, B2-0,15, PP-2,10, B6- 0,18, C-20- 50 milligrammi tashkil etadi.

**Tadqiqotni qo'yishimizdan maqsad:** Ko'k no'xatning sharoitimizga mos, chidamli mahsulot sifati yuqori, yotib qolishga chidamli bo'lgan namunalarini tanlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** Ko'k no'xat nav namunalarini o'rganib, yotib qolishga chidamli qimmatli xo'jalik- biologik xususiyatlariga ega nav namunalaridan seleksiya uchun dastlabki ashyo sifatida foydalanish;

**Tadqiqoto'tkazish uslublari:**

Tajribalarni joylashtirish qishloq xo'jalik ekinlari navlarini sinash Davlat komissiyasi tomonidan qabul qilingan uslubiy qo'llanma asosida olib borildi.

Sobiq N.I.Vavilov nomidagi Rossiya o'simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti (1984), O'zbekiston qishloq xo'jalik ekinlari Davlat nav sinash komissiyasi (1985-1989) hamda Toshkent Davlat Agrar Universtiti Samarqand filiali tomonidan ishlab chiqilgan uslublar asosida olib borildi.

### Xulosa.

Yashil no`xat hosildorligiga asosanzang, ildiz bakteriozi, fuzarioz so`lish kasalligi, askoxitoz, antraknoz, yolg`on un shudring, chirish kasalliklari, yasmiq donxo`ri, loviya donxo`ri, uzun tumshuq qo`ng`izlar, shira 5 nuqtali uzun tumshuq qo`ng`izlar va boshqa hasharotlar ko`proq zarar yetkazar ekan.

Xo`raki ko`k no`xatning yotib qolishga chidamliligi bevosita mahsulot sifatiga, mexanizarsiya vordamida yig`ishtirishga, hosildorligiga ta`sir qiladi. Biz no`xatning nav namunalarini kuzatdik ularning yotib qolishga chidamlilarini boshlang`ich material sifatida tanlab oldik. Natijaga ko`ra Usatiy 86, Surpriz, Faeton, Usatiy, Qizil don, Osiyo 2001, Jasur 98, Moroz, Sputnik, Usatiy 1, Aksayskiy usatiy, Zenoukosky kabi navlar chidamli. Vostok 84, O`zbekiston 2011, 2014 01 navlari chidamsiz bo`lib chiqdi.

Yotib qolishga chidamlilik past bo`ylilik bilan bog`liq bo`lib ko`p navlarga xos xususiyatdir. Ammobaland bo`yli yotib qolishga chidamli navlar ham mavjud. Masalan, Surpriz, Sputnik, Zenoukokiy, Usatiy 86 navlari bo`yi baland bo`lsada, yotib qolishga chidamli ekan.

### Ko`k no`xatning yotib qolishga chidamliligi, kasalik va zarar bo`yicha tanlab olingan nav va namunalar (2022 yil)

T/r	Nav nomi	Yotib qolishga chidachidamlilik	Kasalik va zarar kunandalarga chidamlilik
1	Vostok 84	Chidamsiz 5	Chidamli 7
2	Usatiy 86	Chidamli 7	Chidamli 7
3	Osiyo 2001(st)	Chidamli 7	Chidamli 7
4	Faeton	Chidamli 7	Chidamli 7
5	Usatiy	Chidamli 7	Chidamli 7
6	Qizil don	Chidamli 7	Chidamli 7
7	O`zbekiston 2011	Chidamsiz 5	Chidamsiz 5
8	Aksayskiy ustiy	Chidamli 7	Chidamli 7
9	2014 01	Chidamsiz 5	Chidamsiz 5
10	Usatiy-1	Chidamli 7	Chidamli 7
11	Jasur 98	Chidamli 7	Chidamli 7
12	Surpriz	Chidamli 7	Chidamli 7
13	Sputnik	Chidamli 7	Chidamli 7
14	Zenoukoskiy	Chidamli 7	Chidamli 7
15	Moroz	Chidamli 7	Chidamli 7

### References:

1. D.T.Abdukarimov, "Qishloq xo`jalik ekinlari seleksiyasi va urug`chiligi" Toshkent.2002
2. Amanova M.E, Xudoyorova X. Yashil no`xatning (p.Sativum L.Partim) ahamiyati va yetishtirish bo`yicha tavsiyalar, 2020.

3. “Dukkakli ekinlar jahon kolleksiyasini o`rganish”bo`yicha uslubiy qo`llanma. (Leningrad, 1976).
4. O`zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo`jalik ekinlari Davlat reestri, 2018.



INNOVATIVE  
ACADEMY